

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KIMYO VA EKOLOGIYA KAFEDRASI

NOORGANIK KIMYO

fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Navoiy 2012

O'quv-uslubiy majmua 5140300-Kimyo bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan II - kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Noorganik kimyo" fanining nazariy asoslari yoritilgan.

Majmua zamonaviy pedagogik texnologiya talablariga mos ravishda tayyorlanib, unda fanning o'quv dasturi, ishchi o'quv fan dasturi, ta'lim texnologiyasi, masala va mashqlar, nazorat uchun savollar, tarqatma materiallar, glossariy, referat mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, ma'ruza matnlari, foydali maslahatlar, identiv o'quv maqsadlari, mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

Taqrizchilar: Kimyo fanlari doktori, professor Nasimov A.M.
Kimyo fanlari nomzodi, dotsent Xolmurodov N.A.

Tuzuvchilar: Kimyo fanlari nomzodi Hotamova M.S.
O'qituvchi Usmonova L.M.

KIRISH

«Noorganik kimyo» o'quv predmeti bo'yicha ta'lim texnologiyasi ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarni o'qitishning xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan ilg'or pedagogik texnologiya qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning tarkibi kirish, Noorganik kimyo fanini o'qitish texnologiyasining kontseptual asoslari hamda ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyalaridan tashkil topgan.

Ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari bo'limida «Noorganik kimyo» fanining Davlat va erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning sub'ektlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashdagi ahamiyati va ushbu kursni o'qitishning dolzarbligiga asoslangan, o'quv soatlarining mavzular bo'yicha taqsimlanishi hamda kursning asosiy mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda qo'llanilgan asosiy qoidalari: ta'lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli, vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usullari va vositalari; baholash va nazorat qilish tartiblari yoritilgan.

Fanni o'qitish texnologiyasi quyidagi tartibda ishlab chiqilgan.

- Ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda ko'proq ko'rgazmali, muammoli, informatsion va tematik shakllariga e'tibor qaratilgan.

- Laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishda muammoli savollarni guruhlariga bo'lingan holda muhokama qilish, individual tarzda ishlash, muammoli vaziyatni keys-stadi usulidan foydalanib nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar va bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Kursning strukturasi mundarija bilan birgalikda sxema ko'rinishida ham berilganligi majmuada yo'nalishni yanada osonlashtiradi.

Ushbu ta'lim texnologiyasi barcha oliy o'quv muassasalarida, malaka oshirish kurslarida «Noorganik kimyo» fanining tegishli texnik vositalari bilan jihozlangan auditoriyalarda o'qitishga mo'ljallangan.

«NOORGANIK Kimyo» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari

1. «Noorganik kimyo» kursining dolzarbligi va o'qitish strukturasi

Ma'lumki, kimyo fani va kimyo sanoati xalq xo'jaligida eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi zamonda kimyoni o'rganmasdan turib mavjud ko'pgina muammolarni hal etib bo'lmaydi. Binobarin, rivojlanishning milliy modeli, qolaversa, Ta'lim tizimini isloh qilish va kadrlar tayyorlashning milliy modeli ham zamon talablariga javob beradigan, har tomonlama barkamol va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Rudalardan metallarni ajratib olish, o'simliklardan dorivor va bo'yoq moddalarini olish, shisha va chinni ishlab chiqarish, o'g'itlar, toshko'mir, neft mahsulotlari, rezina hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish xo'jaligimizning eng muhim tarmoqlaridir.

XIX asrda ma'danli konlar, metallurgiyaga xos jarayonlar, shisha, chinni, kislota, asos (ishqor) ishlab chiqarishga doir tahliliy tadqiqotlar asosida rivoj topgan anorganik kimyo o'zining yo'nalishi jihatidan organik kimyo mavqeida bo'lib, kimyoviy fanlar qatorida ikkinchi o'rinni egallagan edi. O'sha zamon olimlari anorganik moddalar tayyorlash, sulfat kislotani katalizatorlar ishtirokida ishlab chiqarish, maxsus po'latlar yaratish, metallshunoslik sohasidagi jarayonlarni o'zlarining birinchi o'rindagi muvaffaqiyatlari deb bilar edilar. D.I.Mendeleyevning davriy qonuni va davriy sistemasining kashf etilishi o'tgan asrning olamshumul ilmiy muvaffaqiyati bo'ldi. Bu kashfiyot anorganik kimyoning XX asrdagi egallagan holatini va uning yangi asrdagi rolini belgilab berdi.

XX asrda kimyo fani tez sur'at bilan rivojlandi, termodinamikaning muvaffaqiyatlari kimyoning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, elektr toki yordamida havodan azot (II)-oksidi olish, Gaber usulida sintetik ammiak ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi; radioaktivlikka oid ilmiy va amaliy ishlar ro'yobga chiqdi, magniy organik sintezlar tufayli va koordinatsion birikmalar kimyosining nazariy va amaliy asoslari ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi.

Kimyo ta'limining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- o'quvchilarni asosiy kimyoviy tushunchalar, yetakchi g'oyalar, ilmiy dalillar, qonunlar, ilmiy bilish usullari, kimyoviy tushuncha va atamalarining shakllantirishga oid bilimlar bilan tanishtirish;
- Organik kimyo fanining fan va texnikadagi o'rni va uning taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan tushunchalarning mexanizmlari haqida ma'lumot berish;

• o'quvchilarda fanning eng muhim tayanch bilimlarini (tushuncha qonun nazariyalar yoki fanning asosini o'quvchilar tushungan holda o'zlashtirib olishlariga erishish va tarixiy rivojlanishining asosiy qonunlari, molekula, atom, kimyoviy reaksiya, kimyoviy element, atom tuzilish nazariyasi, davriy qonun va davriy sistema, organik moddalarning tuzilish nazariyasi, neft va neft mahsulotlari, oqsillar, alkaloidlar va ularning inson organizmiga ta'siri haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, ularning kimyoni o'rganishga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini o'stirish kelgusidagi uzluksiz ta'lim tizimini davom ettirishlari uchun zamin tayyorlash;

• o'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning salomatligini saqlashga, sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishga yo'naltirish;

• kimyo ta'limi mazmuni hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika taraqqiyoti bilan mustahkam bog'lanishini ta'minlash asosida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

• tabiatga, uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

• kimyo ta'limi mazmunini kimyoviy materiallari bilan boyitish, kimyo bilimlar zaminida mahalliy reaktiv va asboblarni, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz va hozirgi olimlarimizning kimyoga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni nazorat qilish Davlat ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi.

XX-asrning ikkinchi yarimiga kelib texnologiya tushunchasi ommaviy tus oldi, ilmiy va amaliy tafakkurning o'ziga xos boshqaruvi aylandi. U olimlar va amaliyotchilarni barcha sohalarida, shu jumladan ta'limda ham yangi-yangi sohalarni va shuningdek tajribalar asosida olingan aniq natijalarni amalda qo'llashda faoliyatni intensiv optimal asosida boshqarib borish, uni loyihalashtirish va oldindan fikrlay bilish asosida tuziladi. O'tish jarayonida yangi informatsion vositalardan foydalanish lozim.

O'qitish texnologiyasi bu- maksimal holda qo'llaniladigan yoki o'qitish, tarbiya va rivojlantirish qonuniyatlariga bo'ysunadi hamda yuqori natijalarga erishishdir.

Bilim berish texnologiyasi – kuchli darajada algoritmlangan, ilmiy asoslangan biror-bir o'quv-tarbiyaviy jarayonni targ'ib etish, shuning natijasida ta'sir kuchi operatsiyalar, tashxis qo'llashlar, majmuasini, shuningdek olinadigan natijalarni ham o'z ichiga oladi.

Shuni qayd etish lozimki, ilmiy metodik adabiyotlarda “pedagogik texnologiyalar o'qitish texnologiyasi” “didaktik texnologiya” tushunchalari ma'lum o'rinni egallaydi. V.V Guzeyning fikricha “pedagogik texnologiya” tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib “an education technology” –o'qitish texnologiyasi uncha aniq bo'lmagan tarjima hisoblanadi. Yaqin yaqingacha bu noaniqlik hech qanday tushunmovchilikni yuzaga keltirmagan edi. Ammo oxirgi paytlarda pedagogik texnologiya tushunchasi bilan adabiyotlarda tarbiya muamolariga bag'ishlangan ishlar yuzaga kela boshladi. O'qitish texnologiyasi termini esa bilimlarni mujassamlashtirish muammolariga bag'ishlangan izohlar hisoblanadi. Ko'pgina mualliflar pedagogik texnologiya tushunchasining ancha umumlashgan mazmunda qo'llashadi. Odatda pedagogik texnologiya –bu chet el texnologiyasining yo'nalishi hisoblanib, bilim olish jarayonining samaradorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida rejalashtirilgan o'qitish jarayonining natijasidir.

Didaktiv texnologiya tushunchasi Bolgariyada o'z o'rnini topgan bo'lib, unda o'qitish nazariyasini didaktika deb qaraladi, bunda shunday xulosaga kelish mumkinki didaktika va ma'lumot olish tushunchalari bir xil ma'noga ega ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Bolgariyalik olimlarning didaktik texnologiya tushunchasiga bergan ta'rifini qarab chiqamiz.

Didaktik texnologiya deganda biz nazariy yo'naltirilgan abstrakt transformatsiyalarni va o'qitish metodikasi va didaktikasining pedagogik faoliyatdagi (operatsiyalar, tashxislar) umumlashuvi tushunilib, uni bajarishdan avval, albatta didaktik muammolar qo'yiladi.

Didaktik texnologiya bu –aniq bir pedagogik faoliyatni ma'lum bir sistemalarga bo'lib, o'zaro bog'langan elementlar bilan bog'liq holda algoritimli amalga oshirish bo'lib, ular ma'lum darajada bir tomonlama aniqlangan va faoliyati yuqori darajadagi samaralarga ega bo'lgan maqsadlar ta'minlaydi.

O'qitish texnologiyasining yana bir turdagi tushunchasini quyidagilardan iborat majmua deb ham qarash mumkin:

-o'qitish natijalarini rejalashtirishdagi ba'zi bir qarashlar;

-o'qitishni oldingi holatidagi tashxis vositalari;

-o'qitish modelining majmuasi;

-ayni konkret sharoitlar uchun optimal modellarning tomonlarini tanlash;

Va nihoyat texnologiya so'zining lingvistik ma'nosiga qaratsak, u grekcha *texno* (mahorat, san'at) va *logos* (so'z, fan) so'zlardan olingan bo'lib, unda o'qitish texnologiyasini o'qitish va tarbiyalash mahorati (san'ati) to'g'risidagi fan deb talqin etish maqsadga muvofiqdir.

O'qitish jarayoni quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan texnologik jarayonlar hisoblanadi;

-maqsadni aniq qo'yilishi, ya'ni tushunchalar operatsiyalar, o'quvchilar faoliyatidan olingan aniq natijalar, bu maqsadlarga erishishdagi diagnostika usullari;

-faoliyat muntazam tizim bo'lib, bu o'z navbatida o'rganish va targ'ib eta bilish (didaktik tomonlarini tushuna bilish: kollektiv o'quv faoliyati, o'rganiladigan jarayonlarning imutasion modellari o'quv o'yinlari va h.k.lar)

-mavzu, bilim, kurslarni, ya'ni algoritmik faoliyatining ma'lum bosqichlaridagi logikasi va ularni o'rganish;

-o'qituvchi va o'quvchining faoliyatlarini motivatsiyasini ta'minlash;

-jarayonni ishlab chiqarilgan sxema bo'yicha algoritmik va ishlab chiqarish faoliyatidagi chegaralarini aniqlash;

-o'quv jarayonida o'quv texnik vositalaridan foydalanish va ayniqsa ma'lumotlarni yangi vositalar va usullar yordamida qayta ishlash;

-texnologiya faqatgina biron-bir o'qitish usulining prinsipi bazasida, masalan texnologiyada tuzilishi mumkin:

-differensial o'qitish;

-modulli –muammoli o'qitish;

-dasturlashtirilgan o'qitish;

-o'yinli (modelli) o'qitish;

-kollektiv usulda o'qitish;

So'zlashuv-ko'rgazmali-amaliy usulda o'qitish.

Bir necha usul birgalikda ishlatilsa o'qitishni texnologik integrali usulini yuzaga keltirish mumkin.

2. « Noorganik kimyo » o'quv kursining mazmuni

1-Mavzu. V guruhning asosiy guruhcha elementlari

Azot. Tabiatda azot. Uning laboratoriya va sanoatda olinish usullari. Azotning vodorodli birikmalari. Ammiak. Ammiakning laboratoriya, sanoatda olinish usullari va qo'llanishi. Ammiakning fizikaviy va kimyoviy xossalari

2 - Mavzu. Ammoniy ionining hosil bo'lishi. Ammoniy tuzlarining xossalari, termik parchalanish mahsulotlari. Azotning kislorodli birikmalari.

Gidrazin. Hidrazin molekulasining tuzilishi. Hidrazinning kimyoviy xossalari. Hidroksilamin. Azid kislota. Azotning kislorodli birikmalari. Olinishi va xossalari. Nitrit kislota va uning tuzlari, kimyoviy xossalari

3 - Mavzu. Nitrat kislotaning kimyoviy xossalari

Zar suv va uning xossalari. Nitrat kislota tuzlari va ularning termik parchalanish mahsulotlari. Azotning tabiatda aylanishi. Azotli o'g'itlar. O'zbekistonda azotli o'g'itlar ishlab chiqarishning rivojlanishi

4 - Mavzu. Fosfor. Fosforning olinishi, Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Fosforning kislorodli birikmalari. Fosfat kislota. Fosfor va fosforli birikmalarning amalda qo'llanishi. Fosforli o'g'itlar.

Fosforning eng muhim tabiiy birikmalari. Fosforning olinishi, allotropik shakl o'zgarishlari. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Fosforning vodorodli birikmalari. Fosforning kislorodli birikmalari. Gipofosfit kislota. Gipofosfitlar. Fosfor (III) oksidi. Fosfat kislota. Fosfor (V) oksidi. Meta-orto- pirofosfat kislotalar. Ortofosfat kislota, sanoatda olinishi, xossalari, ahamiyati. Fosfor galogenidlari. Fosfor va fosforli birikmalarning amalda qo'llanishi. Fosforli o'g'itlar. O'zbekistonda fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishning rivojlanishi

5 - Mavzu. Mishyak, surma, vismut

Mishyak, uning muhim tabiiy birikmalari. Olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Mishyakning vodorodli birikmasi-arsin. Arsenidlar. Mishyakning kislorodli birikmalari. Mishyak oksidining olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Metaarsenit va ortaarsenit kislotalar va ularning tuzlari. Mishyak sulfidlari. Tioarsenit va tioarsenatlar haqida tushuncha. Surma, uning muhim tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Surmaning vodorodli birikmasi stibinning olinishi, xossalari. Antimonidlar. Surma, uning qotishmalari va birikmalarining ishlatilishi. Vismut tabiiy birikmasi, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Vismut birikmalari: vismut gidridi. Vismut oksidi va gidroksidi, tuzlari. Vismut (V) birikmalari, ularning ishlatilishi

6 - Mavzu. IV guruh asosiy guruhcha elementlari

IV guruh elementlari atomlari xossalarining umumiy tavsifi va elektron tuzilishlari. Uglerod. Tabiatda uchrashi. Uglerodning allotropik shakl o'zgarishlari. Uglerodning vodorodli birikmalari, Qisqacha tavsifi. O'zbekistonda tabiiy gaz ishlab chiqarish

7 - Mavzu. Uglerodning vodorodli va kislorodli birikmalari

Uglerodning vodorodli va kislorodli birikmalari. Uglerodning azot bilan hosil qilgan birikmalari. Sianidlar. Uglerodning ftorli birikmalari haqida tushuncha. Freonlar. Metallarning karbidlari. Uglerodning tabiatda aylanishi

8. Mavzu. Kremniy va uning biikmalari

Tabiatda uchrashi. Tabiiy silikatlar. Alyuminosilikatlar: dala shpatlari, slyudalar, asbest. Tabiiy silikatlarining yemirilishi. Kaolin. Kremniyning sanoatda va laboratoriyada olinishi, qo'llanilishi. Kremniyning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kremniyning vodorodli birikmalari. Silikat kislotaning olinishi va xossalari. Silikatlar, eruvchan shisha, turlari, sement beton, chinni, fayans. O'zbekistonda shisha va keramika sanoati

9. Mavzu. Germaniy, qalay va qo'rg'oshin

Ularining tabiiy birikmalari, olinishi. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Allotropiyalari. Germaniyning hozirgi zamon texnikasidaga ahamiyati. qalay, qo'rg'oshin (II, IV) birikmalari va ularning xossalari. Qo'rg'oshin (IV) birikmalarining oksidlovchi xossalari. qalay, qo'rg'oshin va ularning birikmalarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati

10. Mavzu. VIII guruhining asosiy guruhcha elementlari

Elementlarning kashf qilinish tarixi. Nodir gazlar atomlarining elektron tuzilishi, ionlanish potentsiallari. Ksenon, kriptonning muhim birikmalari, qo'llanilishi

11-Mavzu. Metallarning umumiy tavsifi va olinish usullari

Metallarning qotishmalari, ularning tuzilishi, ahamiyati. Metall kristall panjaralarining turlari. Metallarning umumiy fizikaviy va kimyoviy xossalari. Metallar korroziyasi va unga qarshi kurashning asosiy usullari. Metallarning asosiy rudalari va ularni boyitishning muhim usullari. Rudalardan metallar olishda qo'llaniladigan muhim usullar. Elektroliz usulida metallar olish

12- Mavzu. I guruhning asosiy guruhcha elementlari

Elementlarning yer qobig'ida tarqalishi, ularning eng muhim tabiiy birikmalari. Elektroliz usulida olinishi. Oddiy moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Bu elementlarning oksidlari, peroksidlari, tuzlarining xossalari, olinishi va qo'llanilishi. Kaustik soda elektroliz usulida olinishi. Soda, ichimlik sodaning olinishi. Ishqoriy metallar bilan ishlashda ehtiyot choralari. Kaliyli o'g'itlar

13- Mavzu. II guruhning asosiy guruhcha elementlari

Element atomlari xossalarining tavsifi. Bu elementlarning eng muhim tabiiy birikmalari va olinishi. Ishqoriy-yer metallarini saqlash va ular bilan ishlashdagi ehtiyot choralari. Bu metallarning ishlatilishi. Elementlarning birikmalari, gidridlari, oksidlari, gidroksidlari, peroksidlari, tuzlari. Ularning olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Suvning qattiqligi. Kalsiy, magniyning biologik ahamiyati

14- Mavzu. III guruhning asosiy guruhcha elementlari

Elementlar atomlarining umumiy tavsifi. Bor. Uning muhim tabiiy birikmalari, olinishi, allotropik shakl o'zgarishlari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Vodorodli birikmalarining tuzilishi, xususiyatlari, xossalari. Ortoborat kislota.

15- Mavzu. Alyuminiy

Uning yer qobig'ida tarqalishi, muhim tabiiy birikmalar, elektroliz usulida olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Alyuminotermiya. Alyuminiy va uning qotishmalari, ishlatilishi. Muhim birikmalari: oksid, gidroksid, alyuminatlari va tuzlarning olinishi, xossalari va amaliy ahamiyati

16- Mavzu. Davriy sistemaning qo'shimcha guruhchasi elementlari

d va f elementlar xossalarining umumiy tavsifi. Asosiy va qo'shimcha guruhchalar elementlari, atomlari, oddiy moddalari va birikmalari xossalarini taqqoslash

17- Mavzu. III guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Skandiy, ittriy, lantan aktiniy va ularning ochilish tarixi, tabiatda uchrashi. Oddiy moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksidlari, gidroksidlari va tuzlari, ahamiyati

18- Mavzu. IV guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Titan, sirkoniy, gafniy. Ularning tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kislota-asos xossalari va tuzlari

19- Mavzu. V-guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Vanadiy, niobiy, tantal. Ularning tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari

20- Mavzu. VI guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Xrom, uning tabiiy birikmalari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Xrom (II, Cr) birikmalari: oksidlari, gidroksidlarining kislota-asos xossalari, tuzlari. Ularning olinishi va kimyoviy xossalari. Xrom (Cr) ning kompleks birikmalari. Xrom (VI) oksidi va xromat kislotalari, ularning olinishi, xossalari, tuzlari. Xrom qotishmalari va birikmalarining ishlatilishi

21- Mavzu. Molibden va volfram

Tabiiy birikmalardan molibden va volfram olinishi. Molibden, volfram va ular qotishmalarining xossalari, O'zbekistonda ishlab chiqarilishi. Molibdat va volframat kislotalar va ularning tuzlari

22- Mavzu. VII guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Marganes, texnesiy, reniy elementlari atomlarining elektron tuzilishlari va umumiy xossalari. Marganes, tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Marganes (II,IV)-birikmalari, oksidlari, gidroksidlarining kislota-asos xossalari, tuzlari. Marganes (VI-VII)-birikmalari. Manganat va permanganat kislotalar va ularning tuzlari. Marganes, uning qotishmalari va birikmalarining ishlatilishi

23- Mavzu. VIII guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Temir oilasi elementlari, temir qotishmalari, temirning fizikaviy va kimyoviy xossalari, temir (II-III) birikmalari: oksidlari, gidroksidlari, tuzlari. Temir (VI)-birikmalari, xossalari. Ferratlar. Temirning kompleks birikmalari. Reniyning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Reniy (VII)-oksidi, perrenat kislota, uning tuzlari. Reniy va uning qotishmalari, ishlatilishi

24- Mavzu. Kobalt, nikel va uning birikmalari

Ularning tabiatda uchrashi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kobalt, nikel (II,III) birikmalari: oksidlari, gidroksidlari, tuzlarining olinishi va xossalari. Kobalt, nikelning kompleks birikmalari

25- Mavzu. Platina oilasi elementlari

Tabiatda uchrashi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Platina birikmalarining: oksidlari, gidroksidlari, tuzlarining olinishi va xossalari

26- Mavzu. I guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Mis, kumush, oltin. Ularning tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xossalari, birikmalari. O'zbekistonda mis, oltin, kumush va ular birikmalarining ishlab chiqarish, amaliy ahamiyati

27- Mavzu. II guruhning qo'shimcha guruhcha elementlari

Rux, kadmiy, simob. Ularning tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, muhim birikmalari: oksidlari, gidroksidlari, tuzlari

28- Mavzu. Lantanoidlar va aktinoidlar

Bu elementlar atomlari tuzilishining o'ziga xosligi. Birikmalardagi oksidlanish darajalari. Lantanoidlar, tabiatda uchrashi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksidlari, gidroksidlari, tuzlari. Metallari va birikmalarining ishlatilish sohalari. Aktinoidlar, ularning tabiatda uchrashi va sun'iy sintez qilib olinishi. Uran. O'zbekistonda uran zahiralari va ishlab chiqarilishi. Ularning izotoplari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, eng muhim birikmalari. Uran va uning izotoplarining ishlatilish sohalari

1- Laboratoriya mashg'uloti. Azot, ammiak va ammoniy tuzlari xossalarini o'rganish. Azotning kislorodli birikmalari

Azotning olinishi, ammoniy tuzlarining termik parchalanishi, ammiakni olinishi va uning suvda erishi, ammoniy xloridning sublimatlanishi. Azot (I)-oksidining olinishi va xossalari, azot (IV)- oksidining olinishi, nitrat kislotaning oksidlovchilik xossasi

2- Laboratoriya mashg'uloti. Nitrat kislota va uning tuzlarini o'rganishga oid tajribalar bajarish. Azotli o'g'itlar va ularni xossalarini o'rganish

Nitrat kislotaning oksidlovchilik xossalari, nitrit kislotaning qaytaruvchanlik xossalari va nitrat kislotaning xossalarini o'rganish

3- Laboratoriya mashg'uloti. Ammoniy tuzlari va nitrat kislota uning tuzlari xossalariga doir mashq va masalalar yechish

Ammoniy tuzlari va nitrat kislota uning tuzlari xossalariga doir mashq va masalalar yechish

4- Laboratoriya mashg'uloti. Fosfor va uning birikmalari

Fosforning allotropik shakl o'zgarishlari, fosforni oksidlab fosfat kislota olish, ortofosfat tuzlarini termik parchalanishi.

5- Laboratoriya mashg'uloti. Uglerod va uning birikmalari

Yog'ochni quniq haydash, uglerodning qaytaruvchilik xossasi, karbonat kislota tuzlarining hosil bo'lishi, karbonatlarning kislotalarda erishi

6- Laboratoriya mashg'uloti. Uglerod va uning birikmalariga oid mashq va masalalar yechish

Uglerodning vodorodli va kislorodli birikmalari doir mashq va masalalar yechish orqali talabalar bilimini mustahkamlash

7- Laboratoriya mashg'uloti. Kremniy va uning xossalarini o'rganish

Kremniyning olinishi, kremniy (IV)- oksidining ishqorlar bilan ta'siri, natriy silikatning gidrolizi

8- Laboratoriya mashg'uloti. Qalay va qo'rg'oshin birikmalarini o'rganish

Qalayning olinishi, qalayning kislota va ishqorlarda erishi, qalay tiotuzining olinishi, qalay (II)-gidroksid. Qo'rg'oshinning konsentrlangan va suyultirilgan kislotalarda erishi, qo'rg'oshinning oz eriydigan tuzlarini olish

9- Laboratoriya mashg'uloti. Bajarilgan tajribalar asosida eksperimental masalalar orqali testlar yechish

Talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish

10- Laboratoriya mashg'uloti. Natriy va kaliyga oid tajribalar

Ishqoriy metallarning suvga ta'siri, natriy va kaliy peroksidning olinishi, natriy va kaliyning kimyoviy xossalarini o'rganish

11- Laboratoriya mashg'uloti. Magniyga oid tajribalar

Magniyning yonishi, magniyning suv va kislotalar bilan ta'siri, magniy gidroksidning olinishi va uning xossalari, magniy tuzlarining hosil bo'lishi

12- Laboratoriya mashg'uloti. Ishqoriy yer metallarga oid tajribalar.

Kalsiyning suv bilan ta'siri, kalsiy oksidning olinishi. Ishqoriy yer metallarini gidroksidlarini olish, qiyin eruvchan tuzlarini hosil qilish, tuzlarini alangani bo'yashi.

13- Laboratoriya mashg'uloti. Suvning qattiqligi. Suvning qattiqligini aniqlash va yuqotish usullari

Qattiq suv hosil qilish va uni yumshatish, suvning doimiy qattiqligini yuqotish, muvaqqat qattiqlikni miqdoriy aniqlash

14- Laboratoriya mashg'uloti. Borning xossalarini o'rganish. Alyuminiy va uning xossalarini o'rganish

Amorf borning olinishi, borat kislotaning olinishi va xossalari, boraning xossalari. Alyuminiyning kislorod, suv va kislotalar bilan birikishi, alyuminiy gidroksidning amfoterligi, koba'lt alyuminatning hosil bo'lishi

15- Laboratoriya mashg'uloti. Mis va kumush

Mis metalining olinishi, misga kislotalarning ta'siri, mis gidroksidning olinishi va xossalari, ammoniy va mis sulfatning qo'shaloq tuzlarini hosil qilish, kumush ko'zgu hosil qilish, kumush kompleks tuzlarining hosil bo'lishi

16- Laboratoriya mashg'uloti. Rux va uning birikmalari. Kadmiy va simobning xossalarini o'rganish

Ruxga kislotalar va ishqorlar bilan ta'siri, rux gidroksidning olinishi va xossalari, rux sulfidning olinishi simobning olinishi, simob tuzlaridan simobni siqib chiqarish. Simobning olinishi, simob tuzlaridan simobni siqib chiqarish. simob (II)- nitratni tayyorlash, simob (II)- oksidini olinishi

17- Laboratoriya mashg'uloti. Xrom. Molibden va volfram

Xrom (III)-oksidning olinishi va xossalari, xrom (III)-gidroksidning olinishi va xossalari, xrom- kaliyli achchiqtoshlarning olinishi, xromatning bixromatga va bixromatning xromatga aylanishi. Tabiiy birikmalardan molibden va volframning olinishi, xossalari va tuzlarining olinishi.

18- Laboratoriya mashg'uloti. Marganes va uning birikmalariga oid tajribalar
Marganes (II)-gidroksidning olinishi va xossalari, marganes (IV)- oksidning sulfat kislota bilan o'zaro ta'siri, kaliy manganatning olinishi, kaliy permanganatning oksidlovchilik xossasi

19- Laboratoriya mashg'uloti. Temir va uning birikmalari. Kobalt va nikelning birikmalari
Temirning kislotalar bilan o'zaro ta'siri, temirning passivligi, temir (II)-gidroksidning olinishi va xossalari, Fe^{2+} ioniga xos reaksiya. Kobalt (II)-gidroksidning olinishi, kobalt (III)-oksidning olinishi va xossalari, kobaltning kompleks birikmalarini hosil qilish, nikel (II)-gidroksidning olinishi

2. O'quv kursi bo'yicha ma'ruza o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rini topmoqda. Davlatimizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tabiat va uning komponentlaridan samarali foydalanish, hamda bu jarayonda kimyo munosabatlarini tartibga solish va samarali boshqarishga ko'p jihatdan bog'liq. Tabiiyki, ushbu holat, sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

Shu bois, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jahon andozalari darajasida kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish vazifasi qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa me'riy hujjatlar nafaqat milliy ta'lim taraqqiyoti va kadrlar tayyorlash tizimini istiqbolini belgilovchi hujjat, balki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot kafolati sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining birinchi bosqichida amalga oshirilgan islohotlar sohani yangi sifat bosqichiga ko'tarishga zamin hozirladi. Ikkinchi bosqich - ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga katta vazifalar qo'ymoqda. Bunda, aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanishdan iboratdir.

Ta'limning sifati va uni tashkil etish usuli o'qituvchining mahoratiga, talabaning xohish-istagiga, qobiliyati va bilim darajasiga bog'liq. Ta'limning natijasi bilim bilan belgilanadi. Bilim ob'ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in'ikosi, inson miyasidagi mushohada va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ta'limning sifati uni berishda ishtirok etadigan kishilar salohiyati va o'quv jarayonining darajasiga bog'liq.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar-yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilishdan iborat bo'lib, ushbu tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi. Bunda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, hamda spetsifikasiga asoslanish maqsadga muvofiq.

«Noorganik kimyo» kursini o'qitish yuqorida ta'kidlangan ta'lim texnologiyalariga asoslanishi va quyidagi kontseptual yondashuvlarga asoslanishi kerak:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi komp'yuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan kontseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Kimyo» kursining maqsad va vazifasi, tarkibiy tuzilishi va ta'lim jarayonida tutgan o'rni, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqib, ma'lum sharoit va o'quv rejasida belgilangan vaqtda o'qitish, kommunikatsiya, axborot va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullar va vositalar tanlovi amalga oshirildi.

o'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

o'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

o'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - komp'yuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqa asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

MA'RUZA VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

1-MAVZU: V guruhning asosiy guruhcha elementlari

(ma'ruza – 2 soat)

1.1. «V guruhning asosiy guruhcha elementlari» ma'ruzasini olib borish texnologiyasi

Mashg'ulot shakli	Kirish-informatsion mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1.V guruhning asosiy guruhcha elementlarining umumiy tavsifi 2. Azot, tabiatda uchrashi. Olinishi, birikmalari 3.Ammiak. Ammiakning olinishi, fizik va kimyoviy xossalari
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Azot. Tabiatda azot. Uning laboratoriya va sanoatda olinish usullari. Azotning vodorodli birikmalari. Ammiak. Ammiakning laboratoriya, sanoatda olinish usullari va qo'llanishi. Ammiakning fizikaviy va kimyoviy xossalari haqida tushuncha berish
Tayanch tushuncha va iboralar	Azot, fosfor, vismut, surma, mishyak, ammiak, ammoniy, kuldiruvchi gaz, selitra, gidrazin, biogen element
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
V guruhning asosiy guruhcha elementlarining umumiy tavsifi bilan tanishtirish;	V guruhning asosiy guruhcha elementlarining umumiy tavsifini aytib bera oladilar;
